
Sifatli va tezkor davlat xizmatlari ko'rsatish – oliy maqsadimiz

Mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirilmoqda. Bu esa o'z navbatida aholining hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash va biznesni rivojlantirish imkonini beradi.

2003 yildan buyon shahar va tuman hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiyalari tadbirkorlarga xizmat ko'rsatib kelgan bo'lsa, 2016 yil 1 yanvardan boshlab inspeksiyalar negizida tadbirkorlik sub'ektlariga "Yagona darcha" tamoyili asosida davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari tashkil etildi.

2017 yil 1 fevraldan "Yagona darcha" markazlari shahar, tuman hokimliklari tuzilmasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tasarrufiga o'tkazilishi mazkur sohani rivojlantirishda vertikal boshqaruvni shakllantirish, ularning samarali faoliyatini tashkil etish imkonini berdi. Natijada "Yagona darcha" markazlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni 33 tagacha oshdi.

2017 yilning 1 apreldan boshlab ro'yxatga olish tartib-taomillarini 30 daqiqagacha qisqartirish imkonini beruvchi tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi esa ushbu sohani yanada rivojlantirishda yuksak ahamiyat kasb etdi.

Mazkur Farmonning qabul qilinishi shubhasiz, jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatishni yangi sifat bosqichiga ko'tarishga, «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ezgu g'oyani hayotga tatbiq etishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Farmon qabul qilingunga qadar "Yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish imkoniyatidan faqat tadbirkorlik sub'ektlarigina foydalangan bo'lsalar, endilikda Davlat xizmatlari markazlari tomonidan yuridik hamda jismoniy shaxslarga mazkur tamoyil bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatilmoqda. Davlat xizmatlarining har bir turi bo'yicha "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyiliga ko'ra zarur hujjatlar va axborotlarni tegishli tuzilmalardan mustaqil ravishda olinishi hisobiga soddalashtirishni nazarda tutuvchi ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash, davlat xizmatlarini, shu jumladan olis joylarga chiqish orqali "mobil davlat xizmatlari" ko'rsatishning maqbul, qulay va shaffof uslublaridan foydalanilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan 2018-2020 yillarda bosqichma-bosqich joriy etiladigan, "Yagona darcha" tamoyili bo'yicha faqat Davlat xizmatlari markazlari orqali jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan 58 turdagi davlat xizmatlari ro'yxati tasdiqlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi davlat xizmatlari agentligi, viloyatlarda agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman va shaharlarda esa Davlat xizmatlari markazlari tashkil etildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi Qarori esa Adliya Vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi, uning hududiy boshqarmalari, tuman va shaharlarda tashkil etilgan Davlat xizmatlari markazlari faoliyatlarini yuritish uchun huquqiy asos bo'ldi.

Ushbu qaror bilan Adliya vazirligi huzuridagi "Davlat xizmatlari agentligi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshiradigan vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Viloyatimizda mazkur sohani yanada rivojlantirish, aholiga hamda yuridik shaxslarga sifatli davlat xizmatlari ko'rsatish imkonini beruvchi huquqiy va boshqa barcha zarur shart-sharoitlar, jumladan malakali kadrlar zahirasi, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda joylarga chiqib mobil xizmatlar ko'rsatish uchun transport vositalarining mavjudligi "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyilining amalda bajarilishiga mustahkam zamin yaratadi.

R.BOYQO'ZIEVA,

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

huzuridagi davlat xizmatlari agentligi

viloyat boshqarmasi boshlig'i.

A.ABDUKARIMOV,

Qo'shtepa tuman davlat xizmatlari

markazi direktori.

2018-04-05 10:43:09